

Farg'ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2025- yil yanvar-iyun oylari uchun


- I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2025- yilning 1- iyul holatiga ko'ra viloyatda 6155 ta sanoat korxonalari faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalari soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1036 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,8 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 1029 tasi (16,7 %) boshqa nometal mineral mahsulotlar ishlab chiqarishga, 789 tasi (12,8 %) kiyim ishlab chiqarishga, 524 tasi (8,5 %) mashina va uskunalaridan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga va 482 tasi (7,8 %) to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishga to'g'ri kelmoqda.

Korxonalar soni

1- iyul holatiga ko'ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 26 707,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,9 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	26 707,0	106,9
<i>shaxar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	6351,0	103,1
Qo'qon shahri	4307,3	107,8
Quvasoy shahri	847,7	106,1
Marg'ilon shahri	1056,0	107,2
Oltiariq tumani	490,4	103,7
Qo'shtepa tumani	1161,7	104,0
Bag'dod tumani	578,5	104,4
Buvayda tumani	615,3	110,2
Beshariq tumani	707,6	106,5
Quva tumani	405,8	100,8
Uchko'prik tumani	2 140,1	107,1
Rishton tumani	224,5	108,2
So'x tumani	80,3	109,6
Toshloq tumani	1083,6	104,8
O'zbekiston tumani	753,6	106,4
Farg'ona tumani	845,1	107,2
Dang'ara tumani	668,4	105,6
Furqat tumani	402,8	107,3
Yozyovon tumani	195,5	106,1
taqsimlanmaydigan hajm	3791,9	x

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)


Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (19 239,5 ming so'm), Qo'qon shahrida (13 673,1 ming so'm), Uchko'prik tumanida (8 621,0 ming so'm),

Quvasoy shahrida (8 185,6 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (6 415,6 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 104,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, Buvayda tumanida (107,8 %), So'x tumanida (106,6 %), Rishton tumanida (106,2 %), Qo'qon shahrida (105,9 %), Marg'ilon shahrida (105,4 %), Furqat tumanida (105,1 %), Farg'ona tumanlarida (105,0 %) qayd etilib, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natijaga erishilgan.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2025- yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 24 706,1 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (92,5 %)ni tashkil etgan holda Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 158,9 mlrd so'm (0,6 %), Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1666,2 mlrd so'm (6,2 %) hamda Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 175,8 mlrd so'm (0,7 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2025- yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2025- yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 59,2 ming tonna avtomobil benzini (2024- yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan 45,2 % ga kamaygan), 79,1 ming tonna ip kalava (102,9 % ga o'sgan), 533,7 ming litr aroq mahsulotlari (185,4 % ga o'sgan) hamda 175,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (147,7 % ga o'sgan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun*	2024- yil yanvar-iyun*	2025- yil yanvar-iyun
Paxta tolasi, tonna	36 262,9	43 657,0	41 667,6
Paxta urug'lari, tonna	61 438,2	61 500,3	39 442,7
Avtomobil benzini, ming t	174,2	148,3	59,2
Dizel yoqilg'isi, ming t	230,0	192,0	124,0
Paxta linti, t	3 130,6	4 690,6	3146,3
Neft bitumi, ming t	34,4	23,7	22,7
Portlandsement, ming t	366,5	193,3	160,8
Sement klinklari, ming t	87,9	53,8	17,8

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 17,1 % (2024 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 101,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 12,8 % (2024- yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 109,8 %)ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,8 % ni (2024-yilning yanvar-iyun oylarida 0,6 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 17,0 % (15,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 27,1 % (25,6 %), quyi texnologiyali 55,1 % (57,9 %)ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2025- yilning yanvar-iyun oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 114,5 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 100,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun*	2024- yil yanvar-iyun*	2025- yil yanvar-iyun
---------------------	------------------------	------------------------	-----------------------

Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	167,7	156,1	178,4
Issiqlik energiyasi, ming gkal	884,1	670,0	673,4

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan to'qimachilik chiqindilarida 112,5 % ga ko'payish, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 124,0 % ga o'sish kuzatildi. Shuningdek, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 121,1 % ga o'sish kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-iyun*	2024- yil yanvar-iyun*	2025- yil yanvar-iyun
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd so'm	8,6	18,6	23,1
Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar mln so'm	10,0	15,3	18,5
To'qimachilik chiqindilari, ming t	9,6	9,2	10,0

**2023-2024- yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 11 558,2 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 55,4 % ni tashkil etdi. 2024-yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 49,8 % ni tashkil etgan.



V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan



mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfghheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

O.Komilov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

